



MUHAMMAD YUSUFNING SHE'RLARIDAGI SODDALIK

Jo'rayeva Zulfiya Turg'unovna

Baliqchi tuman 1-son kasb hunar maktabi ona tili va adabiyot fani
o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10828801>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 14-mart 2024 yil
Ma'qullandi: 16-mart 2024 yil
Nashr qilindi: 18-mart 2024 yil

KEY WORDS

Muhammad Yusuf, hayoti, ijodi, she'rlari tahlili, xususiyatlari, hozirgi hayotdagi ahamiyati.

ABSTRACT

Ushbu maqolada buyuk shoir Muhammad Yusuf hayoti va ijodi, uning she'rlaridagi soddalik, o'quvchining qalbiga kirib boradigan darajadagi xususiyatlar hamda hozirgi hayotdagi o'rni to'g'risida so'z yuritildi.

Muhammad Yusuf 1954-yil 26-aprel, Marhamat tumani, Andijon viloyati, O'zSSR, SSSR — 2001-yil 29-iyul, Ellikqal'a tumani, Qoraqalpog'iston, O'zbekiston xalq shoiri, Do'stlik ordeni sohibi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi deputati, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi Toshkent rus tili va adabiyoti institutining (hozirgi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti) 1978-yilgi bitiruvchisi. Zamondoshlarining fikricha, Muhammad Yusuf XX asr oxiri — XXI asr boshlaridagi eng iste'dodli o'zbek shoirlaridan biri bo'lgan. Muhammad Yusuf o'qishni tamomlaganidan so'ng, O'zbekiston kitobxonlar jamiyatida muharri sifatida ishlaydi. So'ngra „Toshkent oqshomi“ gazetada muxbiri, G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyida musahhih, „O'zbekiston ovozi“ gazetasida muxbir, O'zbekiston milliy axborot agentligi bosh muharrir o'rinbosari, „Tafakkur“ jurnalida bo'lim mudiri, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida turli lavozimlarda faoliyat yuritgan. Muhammad Yusufning dastlabki she'rlari "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" haftaligida bosilgan (1976). Shundan boshlab respublika matbuotida uning she'r, ocherk va maqolalari muntazam ravishda chop etila boshlagan. Muhammad Yusuf O'zbekiston xalq shoiri unvoni va Do'stlik ordeni bilan mukofotlangan. Mazkur kitoblarga kirgan she'rlarda Muhammad Yusufga mansub bo'lgan avlodning eng oliyjanob va yuksak insoniy fazilatlarini bilan birga yoshlik sururi, ishq va muhabbatning nafis navolari, o'zbekona, sodda, ayni paytda ezgu, bokira va betakror tuyg'u hamda kechinmalari o'zining yorqin ifodasini topgan. So'zning badiiy imkoniyatlaridan mahorat bilan foydalanish, musiqiy ravonlik, tuyg'ular tiniqligi, samimiylik va mayinlik, ruhiyat manzaralarini lo'nda va yakdil ifodalay bilish Muhammad Yusuf she'riy uslubining yetakchi xususiyatlaridir. Uning qalamiga mansub aksariyat she'rlar taniqli xonandalar tomonidan ijro etilmoqda.

Shoir qaysi mavzuda yozmasin undan vatanning nafasi ufurib turadi. Muhammad Yusufning shoirligi Vatan nomli buyuk ildizga borib tutashadi. U shoirlikka biror -bir martaba yoki mansab sifatida qaramaydi, balki shoirlikni vatani oldidagi buyuk mas'uliyat deb biladi. U she'r haqida

quydagi fikrlarni bejiz bildirmagan. "She'r, bu-shirin dard, azob. Shoir shu dard bemori", albatta, shoir she'rlarida dard borligi uchun ham u kitobxon ko'ngliga yetib bera olgan va uni mushohada qilishga undaydi. Shoir she'rlarini tashqaridan kuzatib emas, xalq orasida yashab yaratadi. Shuning uchun ham xalqining dardi, armoni va iztiroblarini chuqur his eta biladi. U o'zining qalami bilan xalqining haqiqiy dardkashi, qadrdoni, g'amxo'ri bo'la olgan shoirdir. U xalqining yurak sadolarini tinglay oladi, shu sababli ham balandparvoz, bo'yoqdor so'zlardan iborat emas, aksincha, xalqona, samimiy va sodda ifodalardan foydalanadi. Bu haqida shoirning o'zi ham shunday degan edi."Jimjimador, balandparvoz so'zlarni yomon ko'raman. So'zni borligicha ifoda etsam deyman. Uning ustidan bo'yoq surkash mutlaqo ortiqcha. Qanday so'z bo'lmasin o'rnida ishlatilsa, soddalik va ravonlik o'z-o'zidan paydo bo'ladi. Shoir she'rlarini o'qiganimizda, uning bu qarashlariga doimo sodiq qolganining guvohi bo'lamiz. Shuning uchun ham shoirning she'rlari yosh-u qarining ko'nglidan birdek joy ola bilgandir.

Shoir turli mavzularda qalam tebratdi va xalq orasida o'zining qahramonlarini ham yarata oldi. Masalan, "Turkman qiz", "Zebijon" va uning talqinida "Otabek", "Kumush", "Zaynab" timsollari ham qayta yaratildi. U bir giyohga ham oddiy nazar bilan qaray olmasdi. U ana shu giyoh misolida biz ko'ra bilmagan hislatlarni topa oldi va o'zining "Lola"sini, "Lolaqizg'aldog'"ini, "Rayhon"nini, "Binafsha"sini, "Yalpiz"ini alohida bir obraz sifatida kashf etdi. Ammo, Muhammad Yusuf she'rlarining bosh mavzusi Vatan bo'lib, u vatanni qanday sevsa, xuddi shunday yozdi. Qalbdan chiqqan sodda, samimiy tuyg'ular xalq qalbidan ham chuqur joy ola bildi. U o'z vataniga bo'lgan sevgisini onasiga bo'lgan sevgisiga qiyos etadi. U vatani haqida fikr bildirar ekan shunday deydi: "Mening vatanim-mening onam, dunyoda undan go'zali yo'q, dunyoda undan ulug'i yo'q". Fikrimizning isboti sifatida shoirning quyidagi she'rini keltirish mumkin.

O, ota makonim, onajon o'lkam,

O'zbekiston, jonim to'shay soyangga.

Sendek mehribon yo'q, Seningdek ko'rkam,

Rimni alishmasman, bedapoyangga.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. „Shoir Muhammad Yusuf tavalludining 60 yilligi nishonlanadi“
2. „В Ташкенте вспоминают Народного поэта Узбекистана Мухаммада Юсуфа“.